

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

60410700- Statistika bakalavriat ta'lif yo'naliishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60410700-Statistika ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **60410700-Statistika** ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lif yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari

"Biznes, boshqaruv va huquq" ta'lif sohasiga oid yo'naliish bo'lib, davlat statistika tashkilotlari, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar echimlarini statistikaning rivojlanish qonuniyatları va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar bilan bog'lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, uning viloyat statistika boshqarmalari, tuman statistika bo'limlari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari, boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari, tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish,

mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

60410700-Statistika bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60410700-Statistika ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darjasini hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan statistikaga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalardan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar echimlarini amaliyatga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtiroy etish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlarini qo'llash, investiyion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhit omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini statistik baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha statistik hisobot tayyorlash; boshqaruv qarorlarining samaradorligini statistik baholash.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtiroy etish.

tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'limmalarini tashkil etish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatida:

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

o'z biznesini yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarining oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarda yuz beradigan ommaviy hodisa va jarayonlarni chuqurlashtirilgan darajada muhokama va tahlil qilish;

statistik tahlil natijalariga asoslangan holda xulosalar chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqish va mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

tovarlar va xizmatlarni iste'mol va jamg'arma jarayonlarini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini bayon etish;

tarmoqlararo balans tuzish sxemasi tenglamasi, to'g'ri va to'la xarajatlar koeffitsientlari va ularni hisoblash;

umumiyl indekslarning o'rtacha va agregat shakllarini hisoblash;

iqtisodiyot samaradorligi ko'rsatkichlarini indekslar tizimi yordamida tahlil

qilishi kerak.

iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;

iqtisodiyot asoslarini, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

demografik setkalar, aholi migratsiya, mehnat bozori va turmush darajasi holatini statistik prognozlash va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

moliyaviy siyosat va tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;

iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va bashoratlash uchun statistik modellar va gipotezalarni qo'llash usullarini, tasodifyi o'zgaruvchilar o'rtaqidagi munosabatlarni aniqlash, shakllarini tasavvur qilish va ma'lumotlar to'plamini strategik talqin qilish ko'nikmalarga ega bo'ladi

biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini statistik baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

ma'lumotlarni jamlash, kodlash, tahlil qilish, ma'lumotlarni vizualizatsiyalash yani grafik, jadvalarda aks ettirish, bir necha dasturlarda xususan R, Python dasturlarida ma'lumotlarni boshqarish, ma'lumotlarni dasturlash, modellashtirish, ma'lumotlarni tahlili asosidagi qaror qabul va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT11210	Xorijiy til 1,2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	300	10	1, 2
1.05	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	ITT1105	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	150	5	1
1.07	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.10	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.11	FAL1305	Falsafa	150	5	3
1.12	STAT1305	Statistika nazariyasi	150	5	3
1.13	EKMET1310	Ekonometrika	150	5	3
1.14	MIKIQ1310	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.15	MAKIQ1410	Makroiqtisodiyot	150	5	4
1.16	IJIQST1405	Ijtimoiy- iqtisodiy statistika	300	5	4,5
1.17	BUX1305	Buxgalteriya hisobi	150	5	3
1.18	MA1405	Moliya asoslari	150	5	4
1.19	BT14510	Biznes tahlil	300	10	3,4
1.20	STM1505	Statistik modellashtirish	150	5	5
1.21	XST1505	Xalqaro statistika	150	5	5
1.22	TST15610	Tarmoqlar statistikasi 1,2	300	10	5,6
1.23	DMST1605	Davlat moliyasi statistikasi	150	5	6
1.24	MHT1605	Milliy hisoblar tizimi	150	5	6
1.25	DS1605	Ma'lumotlar bilan ishlashning zamonaviy usullari (Data Science)	150	5	6
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-7
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-7
Kvalifikatsiya		Iqtisodchi-statistik			
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

* Ta'lim yo'naliishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malakaviy amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzlusiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malakaviy amaliyot ma'lum bir semestriga to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malakaviy amaliyot to'liq 7-semestriga qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o'quv fani qatorida 7-semestr qayd etilmaydi. 7-semestr faqat "Malakaviy amaliyot" qatorida ko'rsatiladi).

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, yengil sanoat mahsulotlari, yengil sanoat texnologiyasi, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  prof. T. Teshaboyev



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024 yil « 25 » 08



M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi statistika agentligi

Direktor  B.A. Begalov

2024 yil « 19 » 08



M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi statistika agentligi
Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti

Direktor  B.K. G'oyibnazarov

2024 yil « 20 » 08



M.O'.

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti"


Milliy tadqiqot universiteti

Rektor  B.S. Mirzayev

2024 yil « 20 » 08



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Boshliq  L. T. Mirsoatov

2024 yil « 20 » 08



M.O'.